

**ESHQOBIL SHUKUR IJODIDA ORZU BILIMI****Abdurahmonova Uldona Abdujapbarovna,****Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti****katta o'qituvchisi**uldana.abdurahmonova@mail.ru

Annotatsiya Ushbu maqolada Eshqobil Shukur she'riyatidagi orzu bilimi shoirning “Sahrodagi sado”, “Umid kechasi”, “Najot”, “Ozodlik”, “Orzu” she'ri asosida insonni inson, bandani banda qiladigan eng muhim ma'rifiy asoslardan biri sifatidagi talqini o'rganilgan.

Kalit so'zlar: so'z, metafora, timsol, o'zak ramz, orzu, erkin shaxs, ozod Vatan, erkin fuqaro, ozod inson, milliy poetik tafakkur.

Iste'dodli shoir Eshqobil Shukur she'riyatidagi orzu bilimi hayrat konsepsiyasida insonni inson maqomida ko'rish niyatini ifodalaydi. “Ko'z yumib ko'rganlarim...” turkumida [6; 17–24] bu bilim taajjubi “*ko'hna mozoriston...*” (insoniyat tarixiga beshik va qabr bo'lgan zamin) makonidagi “Oy yorug'ida” (ko'ngil batnida) “*gulning yaprog'idan ko'ylak tikayotgan, ignani kuylatgan bir qiz*” obrazida namoyon bo'ladi. Bunda “*gulning yaprog'idan ko'ylak*” – ezgu orzular, nekin niyatlar; “*ignani kuylatgan qiz*” esa o'z nafsini yenggan inson, qalbni egallagan yangilanish timsollaridir. Shoir nazarida bu ko'ngil libosi ruh qanotlaridek harir – hatto jonni, ko'zni almasha, arziydi; biroq bu dil ko'ylaklari kafanlik uchun emas, tiriklik (inson bo'lib yashamoq, shu yo'lda kurashmoq) uchunki, uning tiynatida orzu-yu tuyg'u, xayol-u qayg'u birdek mujassam [6; 20].

Insonni insondek ko'rmak orzusi – Eshqobil Shukur ijodiy shaxsiyatining, hayrat konsepsiyasining markaziy muammosi, o'zak g'oyasi hisoblanadi. Ijodkor bir she'rida [4; 85] yozganidek, “*Insonday... Insonday yashamoq uchun baqo bo'lmoqliging shart emas. // Bir bora Vatan deb yig'lamoq uchun Daho bo'lmoqliging shart emas*”.



“Ozodlik” she’rida [5; 301–305] insonlik maqomi, avvalo, **erkin shaxs** (“Sevgimday sevarman seni, Ozodlik...// Sayoq sak emasman, ko‘chkin quyunmas, // Uyasiz ilonmas, uya izlagan. // Bir parcha non menga aziz tuyulmas, // Bir parcha yuragim erk deb bo‘zlagan”), **erkin fuqaro** (“Dilimda chamanlar bo‘lganida xor, // Yelkamdand potirlab o‘sdi qabrlar.//Cho‘lponning qoshida chayqalganda dor, //Joynamoz ustida jon berdi pirlar.//Bag‘rimni cho‘qilab zulmat g‘ajiri, // Qonagan dilimni qorganda loyga...//So‘nggi kitobini yozdi Qodiriy//Turma tuynugiga osilgan oyga”), **ozod Vatan** (“Hayron qo‘llarimni ochdim falakka, //Oyog‘im ostida so‘ngsiz paxtazor.//Tashlandiq orolday g‘arib yurakda//O‘lik kemalarday ming-minglab mozor.//Yoshligim oy kabi balqqan pallada, //Sirlar tabassumday gullagan palla...//Kuyovlik kunlarim qoldi dalada, //Chimildig‘im – dala, kelinim — dala”), **ozod inson** (“Yurak saharida ko‘rinish berding, //Quyosh arzandasi, ko‘ngil hulkari. //Keksaygan otamday men sari yurding, //Non reza bolamday kelding men sari. //Insonlik istarman hayot bog‘ida, //Insonlik, Vatanlik, Xalqlik, Obodlik. //Yuragimning rangin chimildig‘ida //Mangu ko‘rsam deyman seni, Ozodlik. //Sevgimday sevimlim, sirim, Ozodlik”) obrazlarida namoyon bo‘ladi. Bu, ozodlik, nainki o‘z fikri, nuqtayi nazari va pozitsiyasiga ega mustaqil Vatan farzandi, balki o‘z nafsini yenggan erkin inson (“Ko‘nglim daryosida tilla baliqcha, // Tila tilagingni, meni ozod qo‘y” (“Tilla baliqcha”) [5; 301–305], (“Bilmasman, og‘angmi ulug‘ Muhammad, // Quyosh parchalari qaytmishdir yana. // Yuraging – erk qushi, ruhing – haqiqat, // Sen-da, o‘ttiz hurni ulg‘aytgan ona. // Iloh manglayingdan o‘pgan hoynahoy...” (“Mangu yurt”) [5; 304] maqomini ham anglatadi.

“Orzu” she’rida [6; 84] esa “insonni insondek ko‘rmak orzusi”ga uch ta’rif beriladi:

- a) “daholar ko‘ngliga cho‘g‘ tashlagan sir”; b) “osmon maktublarin mangu mavzusi”; v) “azal zulmatlarin kesib o‘tgan nur”.

Bunda: “daholar” – payg‘ambarlar, aziz avliyolar, ulug‘ shayxlar, ma’rifatparvar allomalar; “cho‘g‘” – ilm-hikmat, ezgulik yo‘lidagi jami harakat; “osmon maktublari” – payg‘ambarlarga nozil qilingan vahiylarning yozma ifodasi bo‘lgan muqaddas kitoblar; “azal zulmatlarin kesib o‘tgan nur” – bani odam yaratilmasdan avval “al-miysoq”da



yoʻzilgan, odamzot umr boʻyi izlab yashaydigan hidoyat, poklik, tafakkur va maʼrifat yogʻdusi timsollaridir.

Shoir “Yassaviyni buyuk chillaga solgan”, “Navoiy qalbining oliy tuygʻusi” boʻlgan, “Buxoriy boshida oyday yuksalgan” “insonni insondek koʻrmak orzusi” bilimi ildizlarini sharq-islom maʼrifatidan topadi:

*“Ming yillar beri-yu, ming yillar nari,
Yulduzlar ostida, zamin ustida
Oʻtdi qancha jahon paygʻambarlari
Shu niyat dastida, shu oʻy qasdida.
Qancha tarixlarni qum bosganida,
Sellarda qolganda ellar qaygʻusi,
Nishlayverdi pirlar qabristonida –
Insonni insonday koʻrmak orzusi”.*

Xulosa qilib aytganda, Eshqobil Shukur ijodidagi orzu bilimi ildizlari sharq-islom maʼrifatiga asoslangan oʻzbek adabiyotidagi asl ijod, asl sanʼat – Yaratgan qudrati mohiyatini yagona retseptiv sathga birlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Navqiron davra. Eshqobil Shukur. Yurakni oʻrganish. – T.: Gʻafur Gʻulom, 1984.
2. Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1988.
3. Eshqobil Shukur. Tungi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989.
4. Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995.
5. Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002.
6. Eshqobil Shukur. Koʻz yumib koʻrganlarim. – T.: Akademyashr, 2013.
7. Eshqobil Shukur. Akam kelyapti. / Yoshlik, 2018. 7-son.